QASHQADARYO VILOYATI
QAMASHI TUMANI HOKIMINING

Q A R O R I

180500, Qamashi shahri, Amir Temur ko‘chasi, 1-uy. Tel: (375) 53-24-490, t.qamashi@exat.uz

2021 - yil 9 - sentabr 430-4-58-Q/21 Qamashi tuman hokimligi

Qamashi tumani hududida umumfoydalanuvidagi avtomobil yo‘llari va markaziy ko‘chalarida fuqarolar va transport vositalarini harakati xavfsizligini ta’minlash, yo‘l transporti hodisalarini oldini olish maqsadida yo‘l belgilari o‘rnatish to‘g‘risida

“Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6, 25-moddalari, “Yo‘l harakati xavfsizligi to‘g‘risida”gi Qonunining 7-moddasi, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2015 yil 24 dekabrdagi 370-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Yo‘l harakati Qoidalari” talablariga asosan Qamashi tumani hududida yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlash bo‘yicha profilaktik-ogohlantirish va og‘ir oqibatli yo‘l-transport hodisalarining oldini olish borasidagi ishlar samaradorligini oshirish yuzasidan tegishli tashkilotlar bilan hamkorlikda amalga oshirilishi lozim bo‘lgan keng ko‘lamli tashkiliy va amaliy chora-tadbirlar rejasini ijrosini ta’minlash maqsadida,

Q A R O R Q I L A M A N:

1. Qamashi tuman hududida umumfoydalanuvidagi avtomobil yo‘llari va markaziy ko‘chalarida fuqarolar va transport vositalarini harakati xavfsizligini ta’minlash, yo‘l transporti hodisalarini oldini olish maqsadida o‘rnatilishi lozim bo‘lgan yo‘l belgilari va manzili 1,2-ilovalarga asosan tasdiqlansin hamda mazkur yo‘l belgilarini o‘rnatishga ruxsat berilsin.

2. Qamashi tuman Ichki ishlar bo‘limi boshlig‘i N.Meyliev, tuman ichki ishlar bo‘limi Yo‘l harakati xavfsizligi bo‘linmasi boshlig‘i B.Pirnazarov va tuman yo‘llardan foydalanish unitar korxonasi direktori SH.Almardonov tuman hududida umumfoydalanuvidagi avtomobil yo‘llari va markaziy ko‘chalarida fuqarolar va

transport vositalarini harakati xavfsizligini ta’minlash, yo‘l transporti hodisalarini oldini olish maqsadida yo‘l belgilarini o‘rnatish va doimiy nazorat qilish vazifasi yuklatilsin.

3. Mazkur qaror “Qamashi” gazetasida e’lon qilinsin hamda hokimlikning Qamashi tuman.uz rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

4. Ushbu qaror rasman e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

5. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish tuman hokimining o‘rinbosari Q.Haydarovzimmasiga yuklatilsin.

Туман ҳокими **Б.Тоғаев**

Қамаши туман ҳокимининг
2021 йил 9 сентябрдаги
430-4-58-Q/21-сон қарорига
1-илова

Tuman hududida umumfoydalanuvidagi avtomobil yo‘llari va markaziy ko‘chalarida fuqarolar va transport vositalarini harakati xavfsizligini ta’minlash, yo‘l transporti hodisalarini oldini olish maqsadida o‘rnatilishi lozim bo‘lgan yo‘l belgilari va manzili

RO‘YXATI

№	Yo‘l belgisi o‘rnatilgan manzil nomi	Yo‘l belgisini nomi
1.	4R79“Qarshi-Chim-Shahrisabz” avtomobil yo‘lining 36-37 kilometrlar oralig'ida yo'lning o'ng va chap tomonida	**5.43 “Radar”**
2.	4R79“Qarshi-Chim-Shahrisabz” avtomobil yo‘lining 39 kilometrlar oralig'ida yo'lning chap tomonida	**5.43 “Radar”**
3.	4R79“Qarshi-Chim-Shahrisabz” avtomobil yo‘lining 53 kilometrlar oralig’ida yo’lning o’ng tomonida	**5.43 “Radar”**
4.	4k 340 “Qamashi-CHimqo'rg'on” avtomobil yo‘lining 3-kilometrida	**5.43 “Radar”**
5.	4k 340 “Qamashi-CHimqo'rg'on” avtomobil yo‘lining 8-kilometrida	**5.43 “Radar”**

Қамаши туман ҳокимининг
2021 йил 9 сентябрдаги
430-4-58-Q/21-сон қарорига
2-илова

Tuman hududida umumfoydalanuvidagi avtomobil yo‘llari va markaziy ko‘chalarida fuqarolar va transport vositalarini harakati xavfsizligini ta’minlash, yo‘l transporti hodisalarini oldini olish maqsadida o‘rnatilishi lozim bo‘lgan yo‘l belgilari va manzili

RO‘YXATI

№	Yo‘l belgisi o‘rnatilgan manzil nomi	Yo‘l belgisini nomi
1.	4k 340 “Qamashi-CHimqo'rg'on” avtomobil yo‘lining 6-kilometri, Qamashi tumani “ Fayz Dehqon bozori” oldida	**3.27 “To‘xtash ta’qiqlangan”**
2.	4k298 “SHo'rcha-Qamashi-Xontushdi” avtomobil yo‘lining 8-kilometri 600 metri, Qamashi tumani “ Fayz Dehqon bozori” yon tomoni	**3.27 “To‘xtash ta’qiqlangan”**